

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

NATURAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF FORISH DISTRICT

Erkinova Nilufar

student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Forish, Jizzakh, Nurota, Arnasoy, Piskom.

Abstract: In this article, the topic of natural geographical description of Forish district was discussed and analyzed.

Received: 18.04.23

Accepted: 20.04.23

Published: 22.04.23

FORISH TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK TAVSIFI

Erkinova Nilufar

talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so‘zlar: Forish, Jizzax, Nurota, Arnasoy, Piskom.

Annatotsiya: Ushbu maqolada Forish tumanining tabiiy geografik tavsifi mavzusi muhokama va tahlil qilindi.

ЕСТЕСТВЕННО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ФОРИШСКОГО РАЙОНА

Эркинова Нилуфар

студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан


О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фориш, Джизак, Нурота, Арнасой, Писком.

Аннотация: В данной статье рассмотрена и проанализирована тема естественно-географического описания Форишского района.

KIRISH

O‘lkamizni tabiatini bir birini takrorlamasini qancha okruglarga bo‘lar ekanmiz, Mirzacho‘l



okrugi tarkibiga kiruvchi Jizzax viloyati ham o‘z navbatida o‘n ikkita tumanlardan tashkil topgan. Manashu tumanlarning eng kattasi 1935-yilda tashkil topgan Forish tumani bo‘lib u o‘z navbatida 2 ta shaharcha va 11 ta qishloq fuqorolar yig‘inidan iborat. O‘zi egallagan maydoni 9,53

ming km kv bo‘lib viloyatning 46,2 % qismini tashkil etadi. Hozirgi kunda aholisi 93 ming kishidan ortganligi aytilmoqda.


ASOSIY QISM

Forish tumanining geografiik o‘rniga nazar soladigan bo‘lsak, shimoliy va shimoliy-sharqdan Qozog‘iston Respublikasi, sharqdan Jizzax, Zafarobod, Arnasoy, Do‘stlik, Mirzacho‘l kabi tumanlar orqali, janubdan G‘allaorol tumani, g‘arbdan esa Samarqand va Navoiy viloyatlarining chekka tumanlari orqali chegaralanishiga guvoh bo‘lamiz. Tuman juda keng maydonni o‘z hududiga jamlaganini ayanan uning tabiiy chegaralari orqali ham aniqlab olsak bo‘ladi.

Forish tumani jizzax viloyatining shimoli-g‘arbiy qismidan o‘rin olgan. Mirzacho‘l okrugining janubi va janubi -g‘arbida, shimoli-sharqdan 235-250 metr janubiy va janubi-g‘arba 1400-2000 metr ko‘tarilib boruvchi Nurota tog‘ tizmasi ham Forish tumanining asosiy relyef shakllaridan biri hisoblanadi.




Tumanning relyefi asosan katta-katta pasttekisliklar, Nurota va Piskom tog‘lariga ulanib ketgan keng adir yaylovlar va bir qancha qirlardan iborat. Zangor tog‘idagi Hayotboshi 2169metr cho‘qqisi Nuroto tog‘ tizmasining eng baland nuqatsi hisoblanadi. Mirzacho‘l okrugining Janubi g‘arbida Nurota tog‘lari bilan



birgalikda Qoytosh, Baliqtog‘, Pistalitog‘, Yetimtog‘ tizmalari joylashgan va ushbu tog‘larning tuman iqlimiga bevosita tasiri mavjuddi. Tuman hududi ushbu bir qancha tog‘lar bilan birgalikda Aydar, Arnasoy , Baliqli, Tuzkon, Pistali ko‘llari kabi bir birini takrorlamas botiq relyef shakllarini ham o‘ziga sig‘dirgan. Tuman yer yuzasi esa janubi-sharqdan shimoli-g‘arbgaga tomon pasayib boradi. Tuman aholisi ham tekjislikdan tog‘likka tomon siyraklashib boradi.

Tuman iqlimining shakllanishida undagi relyef shakllarining ham o‘rni beqiyosdir. Issiq qurg‘oqchil yoz va sovuq qishli keskin kontinental iqlimi bu hududda hukm surmoqda. Albatta hudud juda uzoq masofaga cho‘zilganligi va o‘z ichiga uzun tog‘ tizmalari bilan birgalikda viloyatning asosiy ko‘llaridan biri hisoblangan tashlama va sizoy suvlar natijasida hosil bo‘lib hozirgi kunga qadar maydonini sezilarli darajada kengaytirib ulgurgan Aydarko‘l ham joylashgan.



Bu esa o‘sha hududdagi biomassa va aholi yashash sharoitini tog‘li hududdagi sharoitdan keskin farqlaydi. Ko‘rinib turganidek tuman hududidagi iqlimi haroratlar bir xilmas, o‘tachasi yozda $14,5^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilsa yanvarda o‘rtacha harorat -1.5°C .

Bu yerda tog‘li hudud bo‘lganligi sababli yog‘ingarchilik kuchli tarzda kuzatiladi. Yomg‘ir va qor yog‘ishi doimiyligi tog‘li qismida tekislikka nisabtan davomiyroq bo‘ladi . Asosan issiq va sovuq havo oqimlari hududning g‘arbiy qismidan kirib kelib, ancha turib qoladi. Yillik o‘rtacha yog‘in 340-360 mm deb olsak hududning janubi g‘arbiy qismida ancha yuqori 460-490mm shimoli-sharqda esa 240-260mm yog‘in yog‘adi. Yog‘inning asosiy qismi bahor va qish oylariga tog‘ri keladi. Lekin kuzda ham kuchli jala va sel oqimlari bo‘lib turadi. Qishda qor qoplami ancha qalin bo‘lib bazi hududlarda 0,5-1 metrgacha borishi kuzatilgan. Qish oylarida iqlimning o‘zgarishi, qishning qattiq kelishi, qor qoplaming qalinligi bu hududda yashovchi aholining transport harakatini anchagina qiyinlashtiradi. Fevral oyiga kelib qish fasli chekinib bahorning o‘zgaruvchan ob-havosi kirib keladi. Bu mavsumda tuman hududida kuchli yomg‘ir yog‘ishi kuzatiladi. Tog‘dan tekislik tomon kuchli shamollar esadi. Hududning iqlimi qishloq xo‘jaligi uchun qulay shart-sharoitgina qolmay bazida “yaxshigina” talofatlarni ham oli kelyabdi. Bunga misol tariqasida 2022-yilning 22-aprel sanasida Forish tumanig qarashli Egizbuloq mahallasida ro‘y bergen halokatli sel toshqini aytishimiz mumkin. Ushbu roy bergen jarayon natijasida bir qancha uy-joylar yaroqsiz holatga kelgani, insonlar jarohatlanganligiga vafot etganligi, qishloq hududida joylashgan ekin maydonlariga zarar yetganligi achinarli holatdir. Bu holatga esa Nurota tog‘tizmasiga yoqqan kuchli yomg‘irning jamlanib tog‘ridan tog‘ri ushbu hududga yo‘nalganligi sabab bo‘lgan. Bahorgi yog‘ingarchilik davrida tuman hududiga tog‘larga tutashgan barcha soylar to‘lib oqadi. Shimoli-g‘arbgaga tomon 18 kilometr cho‘zilgan, Forish tumani maydonining asosiy qisminin band qilgan Nurota tog‘ tizmasidan bir qancha soylar oqib tushgan bo‘lib, tuman hududida ulardan Ustixonsov, Osmonsov, Bolamonsov, Uxumsov, Hayotsov, Oqtoshsov, Kattasov, Chorvoqsov va yana bir qanchalari oqadi. Bu soylardan qishloq ho‘jaligi qiya tekisliklarni sug‘orishda foydalanadi. Soylarning suv sarfi va tezligiga relyef bilan iqlimning ta’siri juda ahamiyatlidir. Tog‘larda to‘plangan qor va yomg‘ir suvlaringin hajmi esa soylarning o‘zanini kengayib torayishiga ta’siri bilan birgalikda tog‘ jinslarining katta qismini olib borib tekislikka to‘plashini keltirib chiqaradi. Yuqoridaqgi soylar atrofida aksariyat qishloq aholisi joylashgan bo‘lib, ularning xo‘jalik faoliyatida ushbu soylarning ahamiyati katta. Soylarning mavsumga, iqlimg aqarab suv sarfini ko‘payib kamayishi bilan birgalikda o‘zanini o‘zgartirishini esa aholini biroz sarosimaga soladi. Chunki aholi ekin maydonlarini yer osti suvlardan qisman foydalanib aynan soy suvidan foydalanib sug‘oradi. Ular ko‘radigan asosiy daromadini ham aynan polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va boshqa turli xildagi ekin turlari orqali olishadi.

Tumanda boshqa tumanlarga nisbatan yer osti suvlari yer betiga ancha yaqin joylashgan. Shimoliy-sharqiy hududlarda 1-2 metrni tashkil qilsa, janubi- g‘arbida 10-25 metr hisoblanadi. Tog‘ga ayaqin adir larda yashovchi aksariyat aholi artezian quduqlardan 6-10 metrdan 20-25 metr chuqurlikkacha qazib toza ichimlik suvidan foydalanishmoqda. Bugungi kunda tumanda 400 dan

ortiq Fermer xo‘jaligi mavjud bo‘lib, ular zaruriyati uchun qazilayotgan artezian quduqlar natijasida undan yuqorida joylashgan aholi foydalanayotgan quduq va buloqlarning suv sarfi yoz oylariga borib oz sathini pasaytirmoqda.

XULOSA

Forish tumani yer fonda 474 ming km kv ni tashkil etadi. Forish tumani tuprog‘i unumdar bo‘lib har xil turdagи ekinlar yetishtiriladi. Adirlarda gipsli bo‘z, o‘tloqli bo‘z, qumoq, qumloqlar, sho‘rxoklar v sho‘rlangan tuproqlar tarqalgan bo‘lib tog‘larga tomon tuproqlarning unumdarligi ortib, o‘simlik qatlami qalinlashib boradi. Erta bahorda bu tuproqlar ustida efemer va efemeriad o‘simliklardan lola, lolaqizg‘aldoq, chuchmomo, boychechak, kiyiko‘ti kabi bir qancha o‘simliklar bilan bir qatorda ko‘p yillik shuvoq, sho‘ra, yantoq, yulg‘un , ajriq kabi o‘simliklar ham qir adirlarni qoplaydi. Tog‘larda esa meval daraxtlardan tog‘ do‘lanasi, yong‘oq, olma, gilos, o‘rik kabilar uchrasa archa, tol, yovvoyi bodom, na’matak shuning bilan birgalikda ravoch kabilar ham o‘sadi.

Tumanning o‘simlik qoplami bu yerda chorvachilikni yaxshi rivojlanishini ta’minlab bergen. Bu yerda qoramol va qo‘ylarning soni nisbatan ko‘proq bo‘lib qorako‘l qo‘ylari hamda bir qancha yovvoyi hayvonlardan bori, chiyabo‘ri, tulki, quyon, jayron kabilar hayot kechirsa, yumronqoziq, dala sichqoni, kaltakesak, ilon va bir qancha hashorat turlarini ham uchratamiz. Bu yerda tabiatni muhofaza etish maqsadida 1975-yilda Nurota tog‘ qo‘riqxonasida tashkil edilgan bo‘lib, 600 dan ziyod o‘simlik va 60 dan ortiq hayvon turlari saqlanadi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda insonning tabiatga bo‘lgan e’tibori shu qadar kamayib kettiki oxirini o‘ylamasdan shavqatsizlarcha undan foydalonmoqdamiz. Lekin aynan shu tabiat bilan tirikligimizni unutib qo‘ydik desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nematov, O. (2022). Heavy industry infrastructure in jizzakh province: achievements, problems and solutions. International Journal Of History And Political Sciences, 2(11), 41-44.
2. Yusubov, J. K., Yusubov, J. K., Khidaevich, J. B., Khadjiev, U. S., & Nematov, O. N. (2021). The Importance of Modern Technologies in the Teaching of Philosophy. Technology.
3. Tairova, F. (2021). Feruza Tairova, Gulnora Azizova, Gulchexraxon Kobilova, Rahmonali Khasanov, Latofat Ibragimova, Khakima Davlatova, Ozodbek Nematov.(2021). Teaching Phraseological Units and Interpretation of English Phraseological Units Using Uzbek Equivalents. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE), 13 (1): 290-297. DOI: 10.9756/INT-JECSE/V13I1. 211031. International Journal of Early Childhood, 13(1), 290-297.
4. Davlatova, K., & Nematov, O. Man’s Traditional Clothes of in the Jizzakh Oasis.